



TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR VA YASHIL IQTISODIYOT

*Turan International University
(Biznes boshqaruv fakulteti) talabasi
Nazirov Jaloliddin Shuxratjon o'g'li*

Anotatsiya: Maqolada “Yashil” iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati, mazmun-mohiyati, kelib chiqishi, shuningdek uning rivojlanishi uchun qanday kelishuvlar va shartnomalar imzolanganligi haqida so‘z boradi. Hamda mana shu kelishuvlar doirasida qanday ishlar amalga oshirilganligi e’tirof qilinadi. Transmilliy korporatsiyalar (bundan keyingi o‘rinlarda- TMK lar deb yuritiladi) nima va qanday kompaniyalarni biz TMK lar deb atashimiz, ular qatoriga qanday kompaniya va korxonalarni kiritishimiz mumkin ekanli haqida ma’lumot beriladi. TMK lar “Yashil iqtisodiyot”ga doir faoliyatlari, ular bu iqtisodiyotga oid qanday kelishuvlar, shartnomalar imzolanganligi va qanday samarali ishlar olib borganligi e’tirof etiladi. Atrof-muhit ifloslanishi insoniyat hayotiga salbiy ta’sirlari, atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq global muommolar haqida va ularga qanday yechimlar topish to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Bu maqola bilan tanishish orqali “Yashil iqtisodiyot” va TMK lar mazmunan nima ekanligi va TMK “Yashil iqtisodiyot”ga doir qanday ishlarni amalga oshirganligi va oshiriyotganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, BMT, UNEP, Parij kelishuvi, GEFF, TMK, yashil bitim, yashil kelishuv, atrof-muhit, YaIM.

Аннотация: В статье рассматривается значение «зеленой» экономики в развитии экономики, ее сущность, истоки, а также какие соглашения и контракты были подписаны для ее развития. В нем также признается, какая работа была проделана в рамках этих соглашений. Будет предоставлена



информация о том, что такое транснациональные корпорации и какие компании мы называем ТНК, а также какие компании и предприятия мы можем к ним отнести. ТНК отмечают за их деятельность в «зеленой экономике», за то, какие соглашения и контракты они подписали относительно этой экономики, какую эффективную работу они проделали. В нем рассматриваются негативные последствия загрязнения окружающей среды для жизни человека, глобальные проблемы, связанные с загрязнением окружающей среды, и пути их решения. Прочитав эту статью, вы получите информацию о том, что такое «зеленая экономика» и ТНК по сути, а также какую работу ТНК проделали и проделывают в сфере «зеленой экономики».

Ключевые слова: Зеленая экономика, ООН, ЮНЕП, Парижское соглашение, GEFF, ТМС, зеленая сделка, зеленое соглашение, окружающая среда, ВВП

Abstract: The article discusses the importance, content, origin of the "Green" economy in economic development, as well as what agreements and contracts have been signed for its development. It also recognizes what work has been done within the framework of these agreements. It provides information on what transnational corporations are and what companies we can call TNCs, what companies and enterprises we can include in their ranks. It recognizes the activities of TNCs in the "Green Economy", what agreements and contracts they have signed regarding this economy, and what effective work they have carried out. It discusses the negative effects of environmental pollution on human life, global problems related to environmental pollution, and how to find solutions to them. By reading this article, you will gain information about what the "Green Economy" and TNCs are in essence, and what work TNCs have done and are doing on the "Green Economy".

Keywords: Green Economy, UN, UNEP, Paris Agreement, GEFF, TNCs, Green Deal, Green Deal, Environment, GDP.



Kirish

Hozirgi davrda globallashuv sharoitida yer sharidagi tabiiy boyliklarni asrash ularni tejash va kelajak avlodga yetib borishini ta'minlash dunyo mamlakatlari doirasida dolzarb mavzuga aylanib ulgurdi. Bu bilan birga tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni asrash barcha mamlakat fuqorolari va shuningdek barcha ishlab chiqaruvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. So'ngi yillarda barcha mamlakatlar iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan "Yashil iqtisodiyot" ni qo'llab-quvatlashmoqda va bu yo'nalishni rivojlantirishmoqda. Hozirgi davrda dunyo bo'yicha chuchuk suv zaxiralari tabiiy boyliklar neft, ko'mir, gaz va shunga o'xshash qayta tiklanmaydigan boyliklar oxirlab bormoqda. Bunga yechim tariqasida barcha sohalarda inovatsion loyihalar av texnologiyalar ishlab chiqilmoqda ya'ni tabiatga zarar yetkazmagan holda tabiiy boyliklarni o'rni bosuvchi tovarlar ishlab chiqilmoqda, negaki elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun asosan ko'mir, neft, gazlar ya'ni qayta tiklanmaydigan resurslar sarflab va ulardan foydalanilganda atrof-muhitga zararli gazlar chiqariladi. Buning natijasida tabiiy resurlarni ko'p miqdorda sarflanishi va havoning ifloslanishiga olib keladi. Bularning o'rnigan hozirda atom, quyosh energiyasi va shamol orqali elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi atom elektr stansiyasi, quyosh panellari va shamol generatorlaridan foydalanilmoqda.

Tabiiy boyliklarni qayta ishlab ularni iste'molga chiqaruvchi va ulardan ko'p miqdorda foydalanuvchi tashkilotlar bu albatta zavod, fabrika, korxona va korporatsiyalar ya'ni ishlab chiqarish subyektlaridir. Ular mahsulotlar ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar tayyorlash uchun barcha resurslardan foydalanadi. Shu bilan birga ularning resurslardan oqilona foydalanib tabiatga va atrof-muhitga zarar yetkamagan holda samarali foydalanishlarini talab etadi. Ammo hozirgi kungacha aksariyat ishlab chiqaruvchilar bunga befarq edilar va bu ular uchun uncha katta ahamiyatga ega emas edi go'yo. Lekin hozirgi kunga kelib barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlariga bu vaziyat eng muhim e'tiborga molik mavzu bo'lib qoldi. Bu hozirda zamon talabi, bir necha asr oldinga yuzlansak dunyo yuzasida



hozirgiga nisbatan aholi kam va shuningdek ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlari ham bugungi kunchalik ko'p va rivojlanmagan edi. Aynan o'sha davrlarda atrof-muhitga ziyon yetkazuvchi korxona va tashkilotlar ham talaygina bo'lgan, bu albatta to'g'ridan to'g'ri holatda emas. Misol uchun oladigan bo'lsak temir yo'l xizmatida foydalanilgan paravozlar, ularga harakatlanishi uchun suv va ko'mir resurslari kerak bo'lgan va bulardan foydalanish natijasida ko'p miqdorda zararli gazlar chiqargan. Hozirgi davrda esa ularni o'rnini elektr energiyasida harakatlanuvchi poyezd va metrolar egallan Ford Motor Company mashina ishlab chiqaruvchi transmilliy korporatsiyasini olsak, u oldin avtomobillarini ichki yonuv divigatellari bilan jihozlangan holda ishlab chiqargan bo'lsa hozirgi kunga kelib ekologiyaga e'tibor qaratib elektr energiyasida harakatlanuvchi avtomobillarini ishlab chiqarmoqda, shu bilan birga ishlab chiqarishdagi texnika va texnologiyalarini ham energiya tejovchi texniklarga o'zgartirdi.

Negaki hozirda dunyoda mavjud avtomobillarning deyarli 90% ichki yonuv divigateli mashinalardir. Ular yiliga atmosferaga 20 milliard tonnadan ziyod CO₂ ya'ni korbonat angidrid gazi chiqaradi, bu esa atmosferaning ifloslanishi va eng dolzarb bo'lgan azon qatlamining yemirilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, buning oqibatida quyosh nurlari yer yuziga to'g'ridan-to'g'ri tushishiga sabab bo'lib, iqlim isishi, o'simliklarning nobut bo'lishi va eng asosiylaridan biri muzliklarning erishiga olib keladi. Buning oldini olish va yechim topish uchun aksariyat avtomobil ishlab chiqaruvchilar ekologik toza avtomobillarni ishlab chiqarishmoqda. Yana bir TMK ni misol qilib Nestlé kompaniyasini oladigan bo'lsak, bu kompaniyasi oldin ishlab ishlab chiqarishda suv resurslaridan oqilona foydalanish ko'rsatkichi past va qadoqlash bo'yicha plastikdan ko'p foydalangan bu esa atrof-muhitda plastik chiqindilarning ko'payishiga olib kelgan. Shu kunlarga kelib Nestlé kompaniyasi suv resurlaridan samarali foydalanish strategiyasi rivojlantirib va mahsulotlarni qadoqlashda qayta ishlanuvchi materiallardan foydalanmoqda bu esa kompaniyaning tabiatga befarq emasligining yaqqol dalilidir. Umuman olganda dunyo azaldan rivojlanar ekan



insonlar hayotini yaxshilash uchun barcha resurlardan foydalanib aql idroki orqali texnika va texnologiyalarni yaratdi, albatta bu yashash tarzini osonlashtirish va yaxshilash uchun, ammo bu shu bilan birga tabiatga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Biz shuni anglab yetishimiz kerakki ona tabiatning bizga bergan nematlarini asrashimiz, tejashimiz va samarali foydalanishimiz zarur. Nega neft, gaz, ko'mir va shunga o'xshash tabiiy resurlar qayta tiklanmaydi. Chunki ularning yana shunday iste'molga yaroqli holatda qayta tiklanishi uchun millionlab yillar kerak bo'ladi, lekin bu ham bir tahmin xolos. Ulardan biz qancha ko'p foydalansak ularning zahirasi ham oxirlab boraveradi va ulardan foydalanish natijasida atrof-muhit ifloslana veradi. Mana nima uchun biz yashil iqtisodiyotni qo'llab quvatlayapmiz, chunki bunda ana shu tabiiy resurslarni o'rnini bosuvchi o'rin bosar tovarlar yaratiladi, atrof-muhitni asrash bo'yicha davlatlar o'rtasida bitimlar imzolana, shuningdek atrof-muhitga ta'siri kam texnika va texnologiyalar ishlab chiqiladi.

Dunyo mamlakatlari hozirgi kunda resurlarni noyobligini va aksariyat resurlarni qayta tiklashning imkoni yo'qligi sababli o'z iqtisodiyotlarini tabiat va atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda va ular bilan hamnafaslikda yuksalishi ya'ni "Yashil iqtisodiyot" qo'llab-quvatlashmoqda.

"Yashil" iqtisodiyotning o'zi nima u qanday ma'noni anglatadi. "Yashil" iqtisodiyotning bir necha xil ta'riflari mavjud. 2012-yilda Xalqaro savdo palatasi (XSP) "Yashil" iqtisodiyot uchun qo'llanmasida: "Yashil" iqtisodiyot, bu iqtisodiy o'sish va atrof-muhitga mas'uliyat bilan birgalikda taraqqiyot va ijtimoiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlagan holda o'zaro mustahkamlangan birgalikda ishlaydigan iqtisodiyotdir, deb ta'rif berganlar. "Yashil" iqtisodiyotning asosiy mohiyatiga kirib borish usullaridan biri mahsulot yoki biznesning barqarorlik darajasini ko'rsatuvchi iste'molchilarga qaratilgan yo'nalishdir. "Yashil" iqtisodiyot, bu ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyotdir. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas



bog‘liq iqtisodiyot.¹ Bu iqtisodiyotni 21-asrda kelib yana ham katta e‘tibor qaratilishiga asosiy sabablari, azaldan tabiiy resurslarning chegaralanganligi, ularni qayta tiklash imkonsizligi va hozirda yuz berayotgan iqlim o‘zgarishlari, shuningdek davlatlarda yuzga kelayotgan iqtisodiy muammolar va inqirozlar sababli ushbu mavzu dunyo mamlaktlar miqyosida global muhim mavzu bo‘lib o‘rin egalladi.

Atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida “Yashil iqtisodiyot” tushunchasi shakllana boshladi. Ushbu atama ilk bor 1989-yil Buyuk Britaniya xukumati uchun yetakchi iqtisodchilar tomanidan “Yashil iqtisodiyot” ni rivojlantirish rejasi”, deb nomlangan xisobotda foydalanilgan.²

Dastlab, fiziokratlar ta’limotida “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish uchun yagona boylik tabiatdir, degan fikrni oldinga surilgan. Bu ta’limotning asosiy mafkurasi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishda daromadning xarajatlardan ortiqqligini ifodalab beradi. Ayrim manbalarda “Yashil” iqtisodiyot mamlakat tabiatini yaxshilashga ko‘maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba’zi tadqiqotlarda “Yashil” iqtisodiyot tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o‘rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa “Yashil” iqtisodiyot- bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish, uning asosini sof yoki “Yashil” texnologiyalar tashkil etadi, deyiladi.³ “Yashil iqtisodiyot” tushunchasi avvaldan mavjud bo‘lgan, faqat bu atama oldin turlicha teminlarda yuritilgan. Bu iqtisodiyot qadimda ham muhim sanalgan unga turlicha urg‘ular berilgan, ushbu yo‘nalish tufayli turli texnika va texnologiyalar ham rivojlangan. Hozirgi davirga kelib bu mavzuga qaratilayotgan asosiy e‘tibor shundaki, yer yuzida yuz berayotgan turli tabiat o‘zgarishlari, jarayonlari, mamlakatlarda yuzga kelayotgan turli iqtisodiy muammo,

¹ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. D arsluk. -T .: “Ma’rifat”, 2024. 6-bet.

² Blueprint for a Green Economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp

³ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. D arsluk. -T .: “Ma’rifat”, 2024. 5-6-bet.



kamchiliklar va albatta yana takroriy aytishimiz mumkin yer yuzida tabiat bizga inom etgan boyliklarimiz ya'ni tabiiy resurslarimizning cheklanganligidir. Ushbu muammoni ilmiy jihatdan o'rganish dastlab 20-asrning 60-70-yillarida ommalasha boshlagan.

“Yashil iqtisodiyot”ni qo'llab quvvatlash va rivojlantirishga doir dunyo mamlakatlari o'rtasida tuzilgan va kelishilgan kelishuvlarni ko'rib chiqsak. Iqtisodiy fanlar tizimida “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasiga oid tadqiqotlarga 1962-yilda BMT Bosh assambleyasining “Iqtisodiy rivojlanish va tabiat muhofazasi” rezolyutsiyasi va Rim klubining 1972-yildagi “Predel rosta” (D.N. Medouz, D. L. Medouz, Yurgen Randers, Villiyam Berens) nomli m a'ruzasida tom m a'noda sabab bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Aynan shu yili Stokgolm shahrida atrof- muhit muhofazasi bo'yicha birinchi konferensiya bo'lib o'tgan edi. Ushbu anjumanda jahon iqtisodiyotida tabiiy resurslarning ayovsiz o'zlashtirilishi va sanoatlashuvning jadal o'sishi natijasida atrof-muhit halokatli holatga kelganligi va jahon taraqqiyotining yangi “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasini ishlab chiqish zarurligi qayd etilgan. Natijada, ko'pgina mamlakatlarda atrofmuhitni muhofaza qilishga oid qonunlar qabul qilina boshlandi. “Barqaror rivojlanish” ekologiyaga oid tushuncha, degan ilmiy gipotezalar aynan shu davrda shakllangan bo'lib, bunday tor ma'nodagi tushuncha hamon saqlanib qolmoqda. Vaholanki, “Barqaror rivojlanish” tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy va mintaqaviy tizimlarni rivojlantirishda atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda, kelajak avlod ehtiyojlarini hisobga olgan hamda doimiy, bir tekis va muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashni aks ettiradi.⁴

Shuningdek, dunyoning 193 davlati 2015-yilda BMT doirasida “Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development” (Barqaror rivojlanish 2030 kun tartibi: Dunyo transformatsiyasi) deb nomlangan kelishuvga erishishdi. Ushbu

⁴ Xashimova S.N. Y ashil iqtisodiyot. D arsluk. -T .: “Ma'rifat”, 2024. 9-bet.



hujjat barqaror rivojlanishga erishishning 17 ta maqsadi va undan kelib chiqib, 169 ta vazifasi belgilangan.⁵

2008-yil oxirida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi — UNEP tomonidan "Yashil sektorlar"ni rag'batlantirish va loqaydlikni o'zgartirish uchun investitsiya siyosati qabul qilingan. Bu dastur iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhit bilan uyg'unlashtirilgan yashil sektorlarni tahlil qilish, qo'llab-quvvatlashga asoslangan keng qamrovli amaliy ish mexanizmi sifatida taqdim etildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi yoki UNEP (inglizcha: UNEP, United Nations Environment Programme) BMT tizimida yaratilgan dastur bo'lib, butun tizim darajasida tabiatni muhofaza qilishni muvofiqlashtirishga yordam beradi.⁶

Birlashgan Millatlar tashkilotining atrof-muhit dasturi (UNEP) sifatida "Yashil" iqtisodiyot g'oyasi 2008-yilda butun dunyo iqlim inqirozi, biologik xilma-xillik inqirozi ("issiqxona effekti" chiqindilarining ko'payishi va atrof-muhit muvozanatining yo'qolishi), yoqilg'i inqirozi (2007-2008 yillarda yoqilg'i narxining zarbasi), oziq-ovqat (oziq-ovqat narxlari va nafaqalarning oshishi, ma'lum hududlarda oziq-ovqat tanqisligi), suv inqirozi (suv tanqisligi) va 2008-2009 yillardagi eng og'ir moliyaviy inqiroz va global iqtisodiy tanazzul kabi bir qator inqirozlarga duch kelganida qabul qilingan. Bu tushuncha aniq ta'rifga ega emas.⁷

UNEP Boshqaruv Kengashi 2012-yilgacha to'rt yillik muddatga saylangan 58 shtatdan iborat bo'lgan. Kengashdagi o'rinlar geografik jihatdan taqsimlangan. Boshqaruv Kengashining roli BMTning turli xil ekologik dasturlari bo'yicha ishning asosiy yo'nalishlarini belgilash va BMTga a'zo davlatlar o'rtasida atrof-muhit masalalari bo'yicha hamkorlik g'oyalarini tarqatishdir. UNEP kotibiyati 890 nafar xodimdan iborat bo'lib, ulardan 500 ga yaqini boshqa mamlakatlardan shartnoma

⁵ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. D arsluk. -T .: "Ma'rifat", 2024. 13-bet.

⁶ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. D arsluk. -T .: "Ma'rifat", 2024. 41-bet.

⁷ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. D arsluk. -T .: "Ma'rifat", 2024. 19-bet.



asosida ishlaydi. Kotibiyat UNEPning turli siyosat va dasturlarini amalga oshirishni nazorat qiladi. Kotibiyat byudjetni taqsimlash bilan ham shug'ullanadi. Byudjet miqdori qariyb 105 million AQSH dollarini tashkil etadi va bu pullar UNEPga a'zo davlatlarning a'zolik badallaridan yig'iladi. UNEP faoliyatini quyidagi yetti yo'nalishda amalga oshiradi:

- turli konfliktlar haqida ogohlantirish va mojarolami baholash;
- ekologik siyosatni amalga oshirish;
- texnologiya, ishlab chiqarish va iqtisodiyot;
- mintaqaviy hamkorlik;
- ekologik qonunlar va konvensiyalar;
- global darajada atrof-muhitni muhofaza qilish Aloqa va ommaviy axborot.⁸

UNEPning asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlodlar manfaati uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishdir.

Dastur shiori –“Atrof-muhit taraqqiyot manfaati uchun”.⁹

“Yashil iqtisodiyot”ni qo'llab quvvatlash bo'yicha mintaqada tashkil etilgan (European Bank for Reconstruction and Development, EBRD) yoki Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki-(YETTB)ning “Green Economy Financing Facility” yoki “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish dasturi-(GEFF) 28 mamlakatda 170 dan ortiq mahalliy moliya muassasalari tarmog'i orqali faoliyat yuritadi, bu esa taxminan 5 milliard YETTB kredit portfeliga teng, 218 mingdan ziyod investitsiyalar yiliga 9.5 million tonnadan ortiq CO₂ chiqindilarni kamaytirishga olib keldi. GEFF yordamida YETTB ning mahalliy muassasalariga kredit liniyalarini taqdim atedi va kredit oluvchilar ko'plab foydali yashil investitsiyalarni moliyalashtirishlari mumkin.¹⁰

⁸ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T.: “Ma'rifat”, 2024. 30-bet

⁹ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T.: “Ma'rifat”, 2024. 29-bet.

¹⁰ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T.: “Ma'rifat”, 2024. 66-bet.



Yana bir kelshuv Parij kelishuvi, bu kelishuv iqlim o'zgarishi bo'yicha yuridik majburiy bo'lgan xalqaro shartnomadir. U 2015-yil 12-dekabrda Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan BMT ning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (COP21) 196 ta tomonidan qabul qilingan. U 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirdi. Uning asosiy maqsadi "Global o'rtacha harorati sanoatdan oldingi darajadan 2° C dan ancha past darajada ushlab turish" va haroratni 1°C dan yuqori darajaga ko'tarishga harakat qilishdir. Sanoatdan oldingi darajalar". Biroq so'ngi yillarda dunyo rahbarlari ushbu asrning oxirigacha global isishni 1,5° C gacha cheklash zarurligini ta'kidladilar. buning sababi BMT ning iqlim o'zgarishlari bo'yicha hukumatlararo kengashi 1,5° C chegarasidan o'tish iqlim o'zgarishining jiddiy ta'sirini, jumladan tez-tez kuchli qurg'oqchilik, jazirama to'lqinlari va yog'ingarchilikni keltirib chiqarishi mumkinligi ko'rsatdi. Global isishni 1,5° C gacha cheklash uchun issiqxona gazlari emissiyasi 2025-yilgacha eng yuqori cho'qqisiga chiqishi va 2030-yilga borib 43 foizga kamayishi kerak. Parij kelishuvi iqlim o'zgarishiga qarshi ko'p tomonlama jarayonda muhim o'rin tutadi, chuki birinchi marta majburiy kelishuvi barcha davlatlarni iqlim o'zgarishlari qarshi kurashish va uning oqibatlariga moslashish uchun birlashtiradi. Hozirda bu kelishuv doirasida maqsadlarga erishish uchun iqlim o'zgarishi bo'yicha harakatlarini ommaviy ravishda oshirish kerak bo'lsa-da, uning kuchga kirganidan keying yillar allaqachon past uglerod echimlar va yangi bozorlarni keltirib chiqaradi. Ko'proq mamlakatlar, mintaqalar, shaharlar va kompaniyalar uglerod neytralligi maqsadlarini o'rnatmoqda. Nolinchi uglerodli yechimlar emissiyaning 25 foizini tashkil etuvchi iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatbardosh bo'lib bormoqda. Ushbu tendentsiya elektr va transport sohalarida eng ko'p seziladi va erta ko'chib yuruvchilar uchun ko'plab yangi biznes imkoniyatlarini yaratadi. 2030- yilga kelib, uglerodsiz yechimlar global emissiyaning 70 foizidan ortig'ini tashkil etuvchi tarmoqlarda raqobatbardosh bo'lishi mumkin. ¹¹

¹¹ <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>



GGKP- “Global Green Growth Knowledge Platform” ya’ni “Global yashil o’sish bo’yicha bilimlar platformasi” 2012 yilda Yashil o’sishning global instituti (GGGI)-“Green Growth Global Institute”, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti-(OECD), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo’yicha dasturi (UNEP) va Jahon banki tomonidan tashkil etilgan. 2018 yilda GGKP Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni Rivojlantirish Tashkilotini-(UNIDO- United Nations Industrial Development Organization) GGKP Boshqaruv Qo’mitasining to’rtta ta’sischi tashkilotiga - sheriklikning boshqaruvchi va qaror qabul qiluvchi organiga qo’shilishini ma’qulladi. Operatsiyalar Koreya Respublikasining Seul shahridagi GGGI va Shveysariyaning Jeneva shahridagi UNEP tomonidan birgalikda tashkil etilgan GGKP Kotibiyati tomonidan amalga oshiriladi. Har ikkala tashkilot ham tashabbusni qo’llab-quvvatlash uchun maxsus xodimlarni taqdim etadi. Hamkorlikning har bir ta’sischi tashkiloti GGKP faoliyatini amalga oshirishni qo’llab-quvvatlash uchun mas’ul bo’lgan GGKP koordinatorini belgilash orqali moddiy yordam ko’rsatadi.

GGKPning uchta bilim platformasi - Yashil siyosat platformasi, Yashil sanoat platformasi va Yashil moliya platformasi - hukumat qarorlarini qabul qiluvchilar, kichik va o’rta korxonalar (KO‘B) va moliyaviy institutlarga o‘z operatsiyalarini qanday qilib yashil qilish bo’yicha dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun so’nggi tadqiqotlar, o’rganish imkoniyatlari va fikrli etakchilikka to’g’ridan-to’g’ri kirishni taklif qiladi.¹²

Albatta “Yashil iqtisodiyot”ni qo’llab-quvvatlash va uning doirasida amaliy ishlarni amalga oshirishda barcha ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning roli katta. Keling “Yashil iqtisodiyot” doirasida Transmilliy korporatsiyalarning faoliyati bilan tanishsak. Birinchi bo’lib Transmilliy korporatsiyalar (TMK) bu – ma’lum bir mamlaktdagi yirik ishlab chiqaruvchi o’z faoliyatini yanada kengaytirish va foyda olish maqsadida, faoliyatini boshqa bir mamlakatda ham yo’lga qo’yishi va olib

¹² <https://www.greengrowthknowledge.org/about-us>




borishidir. Komponiyalar qachon TMK larga aylanadi, qachonki o'z faoliyatining ikki

Death rate from air pollution, World

Our World
in Data

Estimated number of deaths attributed to different types of air pollution per 100,000 population. Deaths can be attributed to multiple risk factors.



Data source: IHME, Global Burden of Disease (2024)

OurWorldinData.org/air-pollution | CC BY

Note: To allow for comparisons between countries and over time, this metric is age-standardized¹.

1. Age standardization: Age standardization is an adjustment that makes it possible to compare populations with different age structures, by standardizing them to a common reference population. [Read more: How does age standardization make health metrics comparable?](#)

yoki undan ortiq mamlakatda olib borishi, yoki ishlab chiqarishning kamida 10 foizi boshqa davlatda yuritishi va daromadining 25 foizi va undan yuqori qismi faoliyatini yo'lga qo'ygan davlatlarda bo'lishi orqali korxona va kompaniyalar TMK larga aylana oladi. Ularga misol tariqasida dunyo bo'yicha yirik ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korporatsiyalar; Nestle, Pepsico, Coca-cola, KFC, Apple, Samsung, Microsoft, Amazon, Tayota Motor, Honda Motor, John Deere, General Motors va yana shularga o'xshash korporatsiya va kompaniyalrni misol qilsak bo'ladi. Ular dunyo YaIMning taxminan 25-30 foizini tashkil etishadi va jahon savdosida esa 60 foizdan ortiq amaliyotni amalga oshirishadi.

Havoning ifloslanishidan o'lim darajasi, dunyo bo'yicha. 1-rasm.¹³

Ushbu grafikda havo ifloslanishi bilan bog'liq ravishda o'lim soninig ko'payishi yoki kamayishini ko'rishimiz mumkin. Grfik to'rt xil o'zgarish bo'yicha havo ifloslanishini ko'rsatkan, bunda havoning ifloslanishi, tashqi zarrachalar, ichki havoning ifloslanishi va tashqi azon bilan ifloslanishni darajalari va har 100 000 aholi

¹³ <https://ourworldindata.org/grapher/death-rates-from-air-pollution?time=2008..latest>



havo ifloslanishining har-xil turlari bilan bog‘liq taxminiy o‘limlar sonini o‘z ichiga olgan. Grafikdagi 2010-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlarni ko‘rib chiqsak, 2010-yilgi havoning jami ifloslanishi natijasida har 100 000 aholidan 131.3 tasi vafot etdi, tashqi zarrachalar natijasida 60.2 tasi, ichki havo ifloslanishi natijasida 68.1 tasi va tashqi azon bilan ifloslanish natijasida esa har 100 000 aholidan 6.6 ta inson hayotdan ko‘z yumgan. Bu ko‘rsatkichlar 2015-yilga kelib jami havo ifloslanishi 117.5 ta, ichki havo ifloslanishi natijasida 48.9 ta, tashqi zarralar oqibatida 65.9 ta va tashqi azon bilan ifloslanish natijasida esa 6.0 ta inson hayotdan ko‘z yumgan. 2021-yilgi statistikaga ko‘ra jami havo ifloslanishida 99.7, tashqi zarrachalar natijasida 57.6, ichki havoning ifloslanish oqibatida 39.1 ta va tashqi azon bilan ifloslanish jarayonida har 100 000 aholidan 5.9 tasining o‘limi kuzatilgan. Bundan ko‘rish mumkinki atrof-muhitning ifloslanishi tufayli insonlar o‘limi ko‘payishi mumkin. Bu ko‘rsatkichlar yillar bo‘yicha asta sekin kamayib bormoqda, bunga sabab tibbiyotning rivojlanishi va atrof-muhitni asrash borasidagi bir qator sayi harakatlar ta’sir qilgan, biroq atrof-muhitni himoya qilish borasida hali yana bir qator ishlarni amalga oshirish kerak.

TMK lar “Yashil iqtisodiyot” bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirishdi. Germaniyaning yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi TMK laridan biri bo‘lgan Volkswagen Group kompaniyasi Yevropa “Yashil bitimi”, “Parij kelishuvi” va “Barqaror rivojlanish” doirasida o‘z oldiga katta maqsad qo‘ldi va uzoq yillik strategiyalarini ishlab chiqdi. “Nolga boradigan yo‘l”: Volkswagen iqlimga mos kelmaydigan harakatlanish uchun yo‘l xaritasini taqdim etad. U bu tashabusi doirasida: Barqaror ishlab chiqarish; Yevropa ba Shimoliy va Janubiy Amerikadagi zavodlar uchun elektr energiyasini 2030-yilgacha qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tkazish, kompaniya 2030- yilga kelib Yevropada CO₂ emissiyasini har bir avtomobil uchun o‘rtacha 17 tonnaga kamaytirishni maqsad qilgan, bu ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan 40 foizga kam. Shuningdek avtotransportlardan foydalanish bosqichi uchun yashil elektr energiyasi, bu kompaniya Yevropadagi shamol fermalari




va quyosh stansiyalarini keng qo'llab-quvvatlagan birinchi avtomobil ishlab chiqaruvchisi.

Volkswagen eng kamida 2050- yilga kelib uglerodni neytrallash niyatida. Yangi oraliq bosqich 2030-yilga kelib Yevropada har bir avtomobil uchun CO₂ chiqindilarini 40 foizga qisqartirish bo'lib, bu Guruhning 30 foizlik maqsadi sezilarli darajada oshiradi (asosiy 2018-yilga nisbatan). Kompaniya o'z mijozlariga uyda yoki yo'lda bo'lsin o'z avtomobillarini quvvatlash uchun yashil elektr energiyasini taqdim etadi. Buning natijasida Volkswagen qayta tiklanuvchi energiyani keng miqyosda kengaytirishni bevosita qo'llab-quvvatlagan birinchi avtomobil ishlab chiqaruvchisiga

Number of new cars sold, by type, World

Electric cars include fully battery-electric and plug-in hybrids.

Our World
in Data



Data source: International Energy Agency. Global EV Outlook 2024.

OurWorldinData.org/energy | CC BY

aylandi. Natijada 2025-yilgacha Yevropaning birinchi mintaqalarida yangi shamol va quyosh stansiyalari quriladi. Kompaniya RWE enrgetika kompaniyasi bilan birinchi loyhalar bo'yicha shartnomalar imzolangan, va shu loyha doirasida Germaniyada har yili quvvati 170 million kilovatt saot bo'lgan quyosh stansiyasi qurilishini qo'llab-



quvvatlamqda. Barcha loyhalar birgalikda 2025-yilga kelib 7 teravatt soat qo'shimcha yashil elektr energiyasini ishlab chiqarishni rejalashtirgan.¹⁵

Sotilgan yangi avtomobillar soni, turlari bo'yicha, Jahon savdosida. 2-rasm¹⁴

Bu diagrammada dunyo bo'yicha sotilgan avtomobillar sonini yillar bo'yicha ko'rishimiz mumkin. Diagrammada 2010-yildan 2023-yilgacha bo'lgan yonuv divigateli va yonuv divegatelisiz ya'ni elektro mobillarni sotuv hajmini ham kuzatishimiz mumkin. Ichki yonuv divegatarini sotuv hajmini kuzatsak 2010-yilda bu ko'rsatkich 67.72 million dona avtomobil sotilgan, 2016- yilga kelib 83.68 million dona avtomobil sotilgan, 2018-yilda eng yuqori o'sish 83.77 million dona avtomobil sotilgan, 2023-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 62.87 million donagacha pasaygan, bu eng yuqori sotuvdan 20.9 million donagacha pasaygan. Elektro mobillar sotuv hajmiga kelsak, 2010- yilda 7450 ta elektrda harakatlanuvchi avtomobillar sotilgan, 2010-yildan 2023-yillar oralig'idagi o'rtacha sotuv 2020-yilda kuzatilib 2.98 million donaga yetgan, yuqori sotuv esa 2023-yilda 13.80 million donaga yetgan, bu 2010-yildagi sotuvga nisbatan 18792550 donaga o'sgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki ichki yonuv divigatelli avtomobillar sotuvi elektr avtomobillar sotuviga qaraganda ancha yuqori, bu esa atrof-muhitga CO₂ gazining emissiyasi hanuzgacha ko'pligini anglatadi. Biroq elektr avtomobillar ishlab chiqarilishi va sotuvi 2018-yilda 2.06 million donaga sezilarli darajada o'sib, 2023-yilga kelib 13.80 million donaga yetgani va bu ko'rsatkich har yilli salmoqli o'sib bormoqda. Dunyo bo'ylab elektr avtomobillar ko'payishi orqali atrof-muhitga chiqariladigan zararli gazlarning miqdori ancha kamayadi.¹⁵ Mana shu elektr avtomobillar sotuv bo'yicha Volkswagenning istemolga chiqargan elektro mobillari soni 394000¹⁶ donani tashkil qiladi taxminan bu ko'rsatkich dunyo sotuv hajmining taxminan 2.10 foizini tashkil

¹⁴ <https://ourworldindata.org/electric-car-sales>

¹⁵ <https://ourworldindata.org/grapher/car-sales>

¹⁶ <https://www.volkswagen-newsroom.com/en/press-releases/around-487-million-vehicles-worldwide-volkswagen-brand-increases-deliveries-in-2023-18054>



qiladi. bu orqali Volkswagen ham o‘zining elektr avtomobillari orqali havoga Co₂ va shunga o‘xshash zararli gazlarning chiqishini kamaytirmoqda.

Nolga boradigan yo‘lning markazida Volkswagenning elektr hujumi tezligini oshirishga qaratilgan yangi *ACCELERATE* strategiyasi yotadi. Maqsad - yangi avtotransport parkini to‘liq elektrlashtirish. 2030 yilga kelib, Volkswagenning Yevropadagi barcha birliklari sotuvining kamida 70 foizi to‘liq elektr transport vositalariga to‘g‘ri keladi - bu deyarli bir milliondan ortiq avtomobil. Bu Volkswagen Yevropa Ittifoqi Yashil kelishuv talablaridan sezilarli darajada oshib ketishini anglatadi. Shimoliy Amerika va Xitoyda elektr transport vositalarining savdodagi ulushi kamida 50 foizni tashkil qilishi kerak. Bundan tashqari, Volkswagen har yili kamida bitta yangi elektromobil ishlab chiqaradi.¹⁷ Bu kompaniya o‘zining yirik ishlab chiqarishini “Yashil iqtisodiyot”ga befarq bo‘lmagan holda u bilan birga hamnafaslikda olib borishi bu quvonarli holat, kompaniya o‘z oldiga katta maqsad va rejalar qo‘ygan va manashu rejaları doirasida salmoqli ishlar olib bormoqda.

Yana bir yirik TMKga yuzlansak, AQSHning Apple kompaniyasi bu kompaniya dunyo bo‘yicha smartphone, kompyuter va aqilli soatlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Bu kompaniya 2014-yildan beri o‘zining “Atrof-muhit strategiyasi”ni rivojlantirmoqda. Apple kompaniyasining 2024-yilgi barqarorlik hisobotida aytiladiki, kompaniya butun dunyo bo‘ylab tarqalgan ob’ektlari, jumladan chakana savdo do‘konlari, korporativ ofislar va ma’lumotlar markazlari butunlay qayta tiklanadigan elektr energiyasi bilan ta’minlanadi. Bu yutuq boshqa kompaniyalar amal qilishi uchun mezon bo‘lib, Apple uglerod izlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Kompaniya 2030-yilga borib ta’minot zanjiri va mahsulotlarning hayot aylanish davomida uglerod neytralligiga erishishni maqsad qilgan. O‘zining birinchi uglerodsiz mahsuloti bo‘lgan Apple Watch ham uglerodli materiallar va qayta tiklanadigan energiyani ishlab chiqarishga integratsiyalash orqali o‘z taraqqiyotini

¹⁷ <https://www.volkswagen-newsroom.com/en/press-releases/way-to-zero-volkswagen-presents-roadmap-for-climate-neutral-mobility-7081>



nomoyish etadi. Shuningdek qayta ishlash bo'yicha tashabbuslari, jumladan Daisy roboti ham yangilikdir. Daisy nodir tuproq materiallarini qayta tiklash uchun ishlatiladigan qurilmalarni qisimlarga ajratadi, keyinchalik ular kelajakda mahsulotlarda qayta ishlatiladi. Ko'pgina Apple mahsulotlari hozirda 100 foiz qayta ishlangan aluminiy korpuslarga ega bo'lib, xomashyo qazib olish bilan bog'liq chiqindilarni kamaytiradi. Ta'minot zanjiri javobgarligi bo'yicha, Applening 300 dan ortiq yetakchi yetkazib beruvchilari 100% toza energiyadan foydalanish majburiyatini olgan. Bu mas'uliyat Appleni uglerod neytralligi maqsadlariga yaqinlashtiradi, shu bilan birga ta'minot zanjiridagi boshqa kompaniyalarni yanada yashil amaliyotlarni qabul qilishga ta'sir qiladi.¹⁸

Dunyo oziq-ovqat sanoati bo'yicha yirik transmilliy korporatsiyalardan biri Nestlé kompaniyasi "Yashil iqtisodiyot" bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirdi. Nestlé kompaniyalar va hukumatlarga oziq-ovqat yo'qotilishi va chiqindilarni kamaytirishga yordam beradigan birinchi global standartni ishlab chiqishda muhim rol o'ynadi. Oziq-ovqat yo'qotilishi va chiqindilari global iqtisodiyotga yiliga 940 milliard AQSH dollari miqdorida zarar keltiradi va dunyodagi issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 8 foizini tashkil qiladi. Bunga barham berish uchun kompaniya "Oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish uchun innovatsion, ammo amaliy qadamlar qo'yish" mavzusi doirasida bir qator ishlarni amalga oshirdi. Jumladan yashil energiya sohasida Indoneziyada Nestlé zavodi qazib olinadigan yoqilg'idan bioyoqilg'i sifatida mahalliy yetkazib beriladigan guruch qobig'iga o'tdi, ikkinchi zavod esa xuddi shunday amaliyotni qo'llashi kutilmoqda. Finlyandiyada biogaz bilan ishlaydigan zavod qurdik.¹⁹

Shveytsariyaning Henniez shahridagi Nestlé Waters zavodimizda biz mahalliy aholi uchun qayta tiklanadigan elektr energiyasi va ob'ekt uchun issiq suv ishlab chiqarish uchun innovatsion past uglerodli texnologiyalarni yaratmoqdamiz. Ba'zilar qoramol chiqindisidan foydalangan holda uchinchi tomon biogaz qurilmasi orqali

¹⁸ <https://thisrockesg.com/sustainability/apple-sustainability-report/>



boshqa organik chiqindilar (masalan, *Nespresso* dan kofe qoldiqlari) bilan birga olinadigan bu elektr energiyasi saytning issiqlik energiyasi iste'molining 37% ni tashkil qiladi.¹⁹

Italiyada Nestlé BioGas dasturi fermerlar bilan hamkorlikda go'ng va qishloq xo'jaligi chiqindilarini og'ir yuk tashuvchi transport vositalariga yoqilg'i quyish uchun ishlatiladigan biogazga aylantirish orqali oziq-ovqat chiqindilariga qarshi kurashadi. 2021-yilda boshlangan tashabbus 2023-yilda 13000 tonnadan ortiq CO₂ tejab, zarrachalar va oksidlar kabi mahalliy ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirib, sezilarli natijalarga erishdi.¹⁹ Shu bilan birga plastik chiqindilarni atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish borasida kompaniya mahsulotlarini qadoqlash sohasida qayta ishlanuvchi va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan qog'oz idish va haltalardan foydalanmoqda, Ma'lumot uchun iste'moldan chiqqan plastik chiqindilar, har yili yer yuzi bo'ylab o'rtacha 400 mln tonna plastik chiqindi chiqadi.²⁰ Bu esa atrof-muhit va tabiatda yashovchi jonzorlar uchun xavflidir va eng achinarlisi chiqindilar dengiz va okean yuzasida ko'payotganligi ham suv resurslarining ifloslanishi suv ostida yashovchi hayvonlar uchun katta xavf tug'dirmoqda. Shu bilan birgalikda suv resurslarini ham tejash uchun yangi inovatsion texnologiyalardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish. Nestlé kompaniyasi ham barqaror rivojlanish yo'lida salmoqli ishlar olib bormoqda.

Xulosa:

Hozirgi davrda tabiiy resurlarni asrash, ularni kelajak avlodga ham yetkazish global mavzulardan biri. Atrof-muhitni asrash, tabiiy resurlardan samarali foydalanish va qayta tiklanuvchi elektr manbalaridan ham foydalanish borasida ko'plab xalqaro kelishuvlar va bitimlar imzolanmoqda, bular qatorida BMT tomonidan tuzilgan UNEP dasturi, Yevropa ittifoqi tomonidan tashkil etilgan atrof-muhitni asrash

¹⁹ <https://www.nestle.com/sustainability/waste-reduction/food-loss-waste>

²⁰ <https://kun.uz/news/2023/12/22/yer-yuzini-toldirayotgan-plastik-xavfli-chiqindilarni-eng-kop-chiqarayotgan-davlatlar-2-qism>



loyhalarini moliyalashtirish bo'yicha GEFF-“Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish dasturi” va Parij kelishuvlari bo'lib bu kelishuv va dasturlar doirasida “Yashil iqtisodiyot” ni rivojlantirish bo'yicha ko'plab salmoqli ishlar olib borildi. Shu o'rinda dunyoning rivojlangan transmilliy kompaniyalari manashu bitimlar doirasida bir qancha ishlarni amalga oshirishdi. TMK lar yirik ishlab chiqaruvchilar bo'lib ularning faoliyati albatta atrof-muhitga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi, ularning “Yashil iqtisodiyot” yo'lidagi harakatlari yashil barqaror rivojlanishda katta rol o'ynaydi. Atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog'liq o'limlar sonini haqida grafikda ko'rishimiz va tushunishimiz mumkinki, 2010-yilda atrof-muhitning ifloslanish natijasida har 100 000 aholidan jami 131.3 tasi vafot etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib bu ko'rsatkich 117.5 ta inson o'limiga yetgan bo'lsa, 2021-yilda esa jami havo ifloslanishi natijasida har 100 000 aholidan jami 99.7 ta inson vafot etgan. Bundan shuni anglash mumkinki 2021-yilgacha atrof-muhit ifloslanishi yuqori bo'lib insonlar o'limi bilan bog'liq jarayonlar ham talaygina bo'lgan. Hozirga kelib bu ko'rsatkichlar ancha pastlab kamaymoqda negaki barcha davlatlar atrof-muhitni himoyalash bo'yicha salmoqli ishlarni amalga oshirishmoqda. Endi atrof-muhitni ifloslanishiga avtomobillar harakatlanishining ta'siriga keladigan bo'lsak bu ko'rsatkichni biz avtomobillar sotuvi bo'yicha ham ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi dunyo bo'yicha avtomobillar sotuvini tahlil qildik, bunda 2010-yilda ichki yonuv divigatelli avtomobillar 67.72 million dona avtomobil sotilgan, 7450 ta elektrda harakatlanuvchi avtomobillar sotilgan, 2018-yilga kelib eng yuqori o'sish 83.77 million dona ichki yonuv divigatelli avtomobil sotilgan bo'lsa 2018-yilda elektr avtomobillar sotuvi 2.06 million donaga sezilarli darajada o'sgan. 2023- yilga kelib ichki yonuv divigatelli avtomobillar sotuvi 62.87 million donagacha pasaygan va elektrda harakatlanuvchi avtomobillar sotuvi 13.80 million donaga yetgan. Bu orqali anglashimiz mukinki ichki yonuv divigatelli avtomobillar sotuvi va harakatlanishi qanchalik pasaysa ulardan chiqadigan zararli gazlarning atrof-muhitga xavfi ham shunchalik kam bo'ladi. Elekt avtomobillar sotuvi qanchalik ko'paysa atrof-muhitga chiqadigan zararli gazlarning ko'rsatkichlari



shunchalik kam bo‘ladi. Hozirgi paytga kelib dunyo bo‘yicha uglerod chiqindilari va zararli gazlar ko‘payganligi sababli atmosfera ifloslanmoqda, buning natijasida azon qatlami yermirilib quyoshning ultrabinafsha nurlari yer yuziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushishiga sabab bo‘lib, global isish, turli tabiat xodisalarining yuz berishi va hozirda global muommoga aylangan muzliklarning erishiga olib kelmoqda, muzliklarning erishi oqibatida suv sathining ko‘tarilishi, turli tabiat hodisalari, muzliklarda yashovchi hayvonlar hayotining izdan chiqishi va shunga o‘xshash birqancha muaommoli vaziyatlarga yuzaga kelmoqda. Buning oldini olish borasida mamlaktlar ishlab chiqarish ob‘yektlarini qayta tiklanuvchi elektr manbalari orqali quvvatlash, ya’ni ta’biatga zarar yetkazmagan holda shamol gneratorlari va quyosh panellaridan foydalanishga otish, yer yuzida harakatlanayotgan divigatelli avtomobillarni sonini kamaytirib elektro mobillarni ishlab chiqarishni va foydalanishni rag‘batlantirish, turli chiqindilarni qayta ishlovchi ob‘yektlarni tashkil etish bo‘yicha bir qancha harakatlar olib borildi. Ushbu maqolada hozirgi kunda yana ham omma etiboriga chiqqan “Yashil iqtisodiyot” nima ekanligi, uning doirasida qanday kelishuvlar va ishlar olib borilganligi, shuningdek transmilliy korporatsiyalar yashil kelishuvlar doirasida qanday ishlar olib borilganligi haqida so‘z yuritildi. TMK lar yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashi va bu sohada salmoqli ishlar olib borishi balbatta yaxshi natijadir. Qisqa qilib aytganda yer yuzidagi har bir shaxs atrof-muhitni asrash va uni obodonlashtirshda, ya’ni rivojlanishida o‘z hissasini qo‘shishi shart, negaki barchamiz yer sharida yashar ekanmiz tabiat bizga in’om etkan nematlarni isrof qilmasligimiz ularni asrab avaylashimiz va albatta oqilona foydalanishimiz bu bizning tabiatga qaytargan javobimizdir. Ushbu maqoladagi ma’lumotlar “Yashil iqtisodiyot” sohasidagi amalga oshirilgan bir nechta ishlar xolos, bu mavzuga kirgangan har bir shaxsdan bu mavzuni chuqurroq va kengroq o‘rganish talab etiladi. Maqola orqali sizlarda “Yashil iqtisodiyot”ga va ular bilan birgalikda TMK bo‘lgan qiziqishingiz va bilimlaringiz ko‘payadi degan fikrdamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xashimova S.N. Y ashil iqtisodiyot. D arслиk. -T .: “Ma’rifat”, 2024. 5-,6-,
2. 9-,13-,19-,29-,30-,41-,66-betlar.
3. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажикабиев ва бошқалар. –Тошкент.: “Universitet”, 2020. 11-12-betlar
4. Blueprint for a Green Economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp
5. <https://www.greengrowthknowledge.org/about-us>
6. <https://www.volkswagen-newsroom.com/en/press-releases/way-to-zero-volkswagen-presents-roadmap-for-climate-neutral-mobility-7081>
7. <https://thisrockesg.com/sustainability/apple-sustainability-report/>
8. <https://www.nestle.com/sustainability/waste-reduction/food-loss-waste>
9. <https://kun.uz/news/2023/12/22/yer-yuzini-toldirayotgan-plastik-xavfli-chiqindilarni-eng-kop-chiqarayotgan-davlatlar-2-qism>
10. <https://ourworldindata.org/grapher/death-rates-from-air-pollution?time=2008..latest>
11. <https://ourworldindata.org/grapher/car-sales>
12. <https://www.volkswagen-newsroom.com/en/press-releases/around-487-million-vehicles-worldwide-volkswagen-brand-increases-deliveries-in-2023-18054>
13. <https://ourworldindata.org/electric-car-sales>
14. <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>